

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.U.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mazmuni	9
B.Sh.Shermuhammadov, D.R.Murodova	
Fanlararo integratsiya asosida bo'lajak musiqa ta'llimi o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli	16
N.M.O'ranova	
Xorijiy ta'lilda tyutorlik faoliyatining mohiyati va funksiyalari	20
B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish	24
B.A.Umarov	
Raqamli texnologiyalar vositasida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	28
I.M.Saidov	
Vatanparvarlik va yuksak ma'naviy tarbiya - uchinchi renessans poydevorining omili	33
M.I.Alimjonova	
Ta'llimning globallashuvi sharoitida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	37
I.I.Yo'ibarsova	
Talabalarda bioetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-tarixiy an'analari hamda zamonaviy yondashuvlari.....	45
M.I.Alimjonova	
Talabalarni madaniyatlararo muloqot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli.....	49
F.A.Ibroximov, B.M.Jo'raqo'ziyev	
Mafkuraviy immunitet va uning zarurati	56
Z.J.Pardaeva	
Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari.....	60
F.A.Ibroximov	
Huquqiy fanlarni o'qitilishidagi uzviylik va uzluksizlikning mavjud holati.....	70
L.D.Tuganova	
Gender va ta'lilda tenglik muammosi	75
Sh.X.Tog'aev	
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy masalalari	78
A.R.Saydullayeva	
Talabalarda gender madaniyatini rivojlantirishning tuzilishi va tarkibiy qismlari	83
G.S.Raxmonova	
Nostandart tafakkur tarzini rivojlantirishda mustaqil ishlarning pedagogik imkoniyatlari.....	87
M.R.Usmanov	
O'tish davri yoshidagi ruhiy o'zgarishlarning rivojlanish xususiyatlari.....	93
X.Y.Jo'rayeva, M.T.Turkistonova	
Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanlarini o'qitishning nazariy asoslari	97
E.S.Yuldashev	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	101
G.B.Karimova	
Jismoniy tarbiya fanning interfaol ta'lim usullari va ularni innovatsion faoliyatini shakllantirish	107
F.O.Toshboltayev	
Zamonaviy ta'lilda pedagogik imkoniyatlar va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash	111
S.D.Akzamov	
Jismoniy tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni bolalar va o'smirlar organizmiga ta'siri.....	115

XORIJY TA'LIMDA TYUTORLIK FAOLIYATINIG MOHIYATI VA FUNKSIYALARI**СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ ТҮҮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЗАРУБЕЖНОМ ОБРАЗОВАНИИ****THE ESSENCE AND FUNCTIONS OF TUTORING IN FOREIGN EDUCATION****O'rinovalar Nilufar Muhammadovna¹*****1O'rinovalar Nilufar Muhammadovna***

– Farg'ona davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy tadqiqotlarda tyutorlik tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni, shu bilan birga "LINK" xalqaro menejment instituti amaliyotida tyutorlik faoliyati, OMPT- ochiq masofaviy professional ta'lif tizimida tyutorlik funksiyalari, ta'lif traektoriyasi amalga oshirishda tyutorning roli yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие тьюторства в зарубежных исследованиях, его сущность и содержание, а также тьюторская деятельность в практике международного института менеджмента "ЛИНК", тьюторские функции в системе открытого дистанционного профессионального образования (ОДПО), роль тьютора в реализации образовательной траектории.

Abstract

This article discusses the concept of tutoring in foreign studies, its essence and content, as well as tutor activity in the practice of the International Institute of Management "LINK", tutor functions in the system of open distance professional education (ODPO), the role of the tutor in implementation of the educational trajectory.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, tyutor, tyutorlik faoliyati, tyutorlik faoliyati mohiyati, tyutorlik funksiyalari, ta'lif traektoriyasi.

Ключевые слова: будущий учитель, тьютор, тьюторская деятельность, сущность тьюторской деятельности, тьюторские функции, образовательная траектория.

Key words: future teacher, tutor, tutor activity, the essence of tutor activity, tutor functions, educational trajectory.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lifi tizimida nafaqat yuqori kasbiy kompetentsiya va pedagogik tafakkurga ega bo'lgan, balki samarali ta'lif texnologiyalari asosida talabalarning mustaqil ta'lif faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq eng murakkab innovatsion pedagogik muammolarni ijodiy hal qila oladigan pedagoglarni tayyorlash zamon talabiga aylandi.

Agar uzoq vaqt davomida pedagog talabalar oldida bilimlarning asosiy manbai sifatida harakat qilgan bo'ssa, endi u shaxsning faol rivojlantiradigan, kasbiy kompetentsiyalarni doimiy ravishda takomillashtirib boradigan, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantiradigan, nostandard muammolarni hal qilishga tayyor bo'lgan mutaxassisiga aylanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston oliy ta'lif tizimiga yangi joriy etilgan "Tyutorlik faoliyati" muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tyutorlik faoliyatining nazariy jihatlari ko'plab rus va xorij olimlari tadqiqot ishlarida o'rganilgan bo'lib, ulardan ayrimlarini tadqiqot ishimiz doirasida ko'rib chiqamiz.

M.G.Munning ishida keltirilgan fikilarda tyutorlik faoliyati quyidagicha talqin qilinadi:

- ish va o'quv mashg'ulotlarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi, o'zaro hurmat va qulay psixologik muhit yaratishda shaxsiy o'rnak ko'rsatadi;

- barcha talabalarga o'zaro samarali muloqot qilish va diqqat bilan tinglashga yordam berish orqali o'rganishni osonlashtiradi; talabalarni ta'lif maqsadlariga erishish uchun yo'naltiradi;

- talabalarga ta'lif jarayoniga to'liqroq qo'shilishlariga yordam berish orqali ularga qaror qabul qilishga ko'maklashish, tegishli ma'lumotlarni tanlashga yo'naltirish, maqsadlarga erishish, shuningdek talabalar ishidagi muvaffaqiyatlari kuzatib shaxsiy o'quv jarayonni boshqarishga rahbarlik qiladi; ishning aniqligi va sifati hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal qilishga yordam beradi;

- o'qitiladigan fan sohasining eksperti sifatida talabalarga beriladigan bilimlarni doimiy ravishda yangilab, baholab turadi;

PEDAGOGIKA

- ta'lim masalalari bo'yicha maslahatchi bo'lib, talabaga ta'lim olishda muvaffaqiyatga erishish mezonlarini tushuntirib boradi va natijada talaba o'quv maqsadlariga erishishi va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;

- talabalarni o'z g'oyalarini amalda qo'llashga undash, ularni babs-munozaralar va interaktiv treninglarga jalb qilish, yangi loyihamalar va tadqiqot ishlarda qo'llab-quvvatlash orqali o'qishga motivatsiyasini shakllantiradi;

- ta'lim sohasida innovator bo'lib, iqtisodiy va ishtimoiy omillar va turli madaniyatlarni hisobga olgan holda o'quv jarayoniga keng qo'llash uchun o'quv kurslari, o'quv qo'llanmalarini va bilimlarni baholash tizimlarini ishlab chiqadi [5;234].

Tyutorning masofaviy ta'lism tizimidagi faoliyati AQSHning Texas A&M universiteti professori P.E.Uilyamsning doktorlik dissertasiyasida tadqiq etilgan IT sohasida o'n besh mutaxassisning Delphi veb-tizimlari orqali to'rt bosqichda o'tkazilgan so'rovnomasida tyutorning quyidagi funktsiyalari keltiriladi: administrativ menejer; instructor; metodist; texnolog; proktor; qo'llab-quvvatlash xodimi; kutubxonachi; texnik; baholash bo'yicha mutaxassis; grafik dizayner; o'qituvchi; noshir - muharrir; lider – rahbar [10; 113].

Y.L.Derajnening fikricha, "ochiq ta'lism tizimidagi tyutor o'qituvchi, maslahatchi, metodist va murabbiy vazifasini bajaruvchi ta'lism tizimining eng muhim komponenti hisoblanadi" [3;5].

Rossiya federatsiyasida tyutorlik muammosi bo'yicha birinchi nashrlar maxsus faoliyat sifatida 1993-1994-yillarda paydo bo'lgan. Xalqaro menejment instituti "LINK" ning (Learning International NetworK) masofaviy ta'lism sohasidagi tajribasini tahlil qilish asosida Rossiya va Buyuk Britaniya ochiq masofaviy professional ta'lism loyihasi yaratiladi. Tyutor (OMPT) ochiq masofaviy professional ta'lism tizimining samaradorligini ta'minlovchi asosiy subyektlardan biridir. Ushbu ta'lism tizimida tyutor bu kurs mazmunini o'zlashtirish va shaxsiy va kasbiy rivojlanish bo'yicha talabalarining mustaqil faoliyatining maslahatchisi, ustoz, tashkilotchisi funktsiyalarini bajaradigan o'qituvchining maxsus turi. OMPT modeli doirasida tyutorlik pedagogik faoliyatning bir turi sifatida qaraladi, uning sifat farqi uchta asosiy prinsip bilan belgilanadi: OMPT talaba mustaqil ravishda o'qyidi, tyutor unga hamkorlikning maxsus jihatidan texnologik tashkil etish orqali yordam beradi; ta'lism o'quvchilarining real tajribasini o'qitish mazmuniga kiritish asosida amalga oshiriladi; ta'lism jarayoni tarmoqli, taqsimlangan xarakterga ega bo'ladi [11; 87].

"LINK (Learning International NetworK)" ilmiy maktabi vakillarining tadqiqotlarida tyutorlik faoliyatining mohiyati bilan bog'liq muammolar juda keng o'rganilgan. S.A.SHennikovning monografiyasida tyutor faoliyati ta'larning yangi shakli sifatida uning umumiy tavsifi berilgan, pedagogik faoliyatning alohida turi sifatida tyutorlikni nazariy asoslari aniqlangan [11;123]. E.L.Gavrilova ishida tyutorning OMPT doirasida talabalar bilan bevosita o'zaro aloqasi muammosi tadqiq etilgan[11; 65].

E.S.Komrakova tadqiqot ishining predmeti tyutorlik tizimidagi loyihalash faoliyati bo'lib, uning dissertasiysi doirasida to'rtta loyihalash turi va OMPT ta'lism dasturini loyihalash texnologiyasi [88-89] keitirilgan. Yuqorida keltirilgan mualliflarning fikriga ko'ra, tyutor o'qituvchi va bola o'rtaida vositachi vazifasini bajaradi, o'quvchi faoliyati va uning individual rivojlanish dasturlarining tashkilotchisi hisoblanadi. [7;159] Tadqiqotchilar nuqtai nazaridan kelib chiqib tyutorlikning mohiyati va funktsiyalari haqidagi tushunchalarini quyidagicha izohlash mumkin: "ta'lism deganda individual ta'lism traektoriyasini shakllantirish tushunilsa, u holda o'quvchiga ushbu ishni bajarishda yordam beradigan kattalarning maxsus pozitsiyasi paydo bo'ladi. Kattalarning bunday pozitsiyasini "tyutor" atamasi bilan belgilandi (ingliz tilidan tarjima qilingan - murabbiy)" [7; 20]. Ta'lism traektoriyasi tushunchasini mualliflar o'quvchi o'qituvchi bilan birligida ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan ta'lism loyihalari ketma-ketligini tushunadilar. O'qituvchi o'quvchining bilim olish uchun "buyurtmasini" shakllantirish mumkin bo'lgan vaziyatlarni tashkil qilish orqali uning harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

"LINK" xalqaro menejment institutida "yaxshi tyutor o'quv jarayonining menejeri, an'anaviy o'qituvchisi, boshqaruvi maslahatchisi, kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanuvchisi (matn muharrirlari, elektron ma'lumotlar bazalari, elektron jadvallar, elektron pochta, Internet, interaktiv kompyuter dasturlari) va o'yin texnikasidan foydalanish tajribasiga ega bo'lishi kerak" deb hisoblashadi. [1;51-55].

"LINK" xalqaro menejment instituti quyidagi jarayonlarda tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish mumkinligini ta'kidlaydi:

- masofaviy ta'lism tizimidagi tyutorlik;

- oly professional ta'limi tizimidagi tyutorlik;
- ochiq ta'lim tizimida tyutorlik ;
- individual ta'lim dasturlari sharoitida tyutorlik ;
- mustaqil ta'lim olishda tyutorlik va boshqalar.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rGANISH, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, psixologik-pedagogik testlar, matematik-statistik metod.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rossiyada tyutorlikka bag'ishlangan konferentsiya tashkilotchilarining fikriga ko'ra, "tyutor talabaning maslahatchisi bo'lib, unga individual ta'lim dasturini ishlab chiqishda, o'quv jarayonining o'ziga va ushbu jarayonning alohida elementlariga moslashishida yordam berishi va boshqa tomonidan ta'lim natjalaridan qanday foydalanish va ushbu o'quv dasturini, o'quv faoliyatini ushbu shaxsnинг individual rivojlanish jarayonida qanday o'tkazish kerak" kabi savollarga javob berishi mumkin. [6;77].

Tomsk shahrida bo'lib o'tgan Rossiyada tyutorlikni rivojlantirish muammosi bo'yicha konferentsiyaning aksariyat ishtirokchilari tyutor ta'lim dasturini tuzishda vositachiga aylanadi deb hisoblashadi. Tyutor o'rta maktab o'quvchining ma'lum bir fan sohasida o'zini o'zi belgilashiga hissa qo'shishi; o'quvchiga belgilangan maqsadlarga mos keladigan tanlangan sohada o'z ta'lim yo'lining loyihasini tuzishda yordam berish; o'z sohasining muammolarini, turli xil yondashuvlar va nuqtai nazarlarni taqdim etish, ularning muhokamasini tashkil etish; individual dasturlarni hisobga olgan holda o'quv-tadqiqot faoliyatini tashkil etish uchun sharoit yaratish; mintaqaviy vaziyatni va ushbu fan sohasini rivojlantirish istiqbollarini ko'rsatish; o'quvchining maktabdan tashqari ta'lim maydonini kengaytirish; o'quvchiga o'z loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'zini o'zi tashkil etish texnikasini o'zlashtirishga yordam berish [8;89].

Oliy antropologik muktab rahbarlarining fikricha, tyutorlik tizimi talabalarning ma'lum ehtiyojlari va tadqiqot manfaatlari imkon qadar mos keladigan tarzda ishlab chiqilgan. Ish jarayonida ham tyutor, ham uning assistenti sifatida doimiy ravishda talabani tadqiqot faoliyatiga jalb qiladilar. Shunday qilib, birinchi kursdan boshlab talabada tadqiqotchilik tajribasi va ma'lum ish ko'nikmalarini shakllantiradi, ular o'qish davomida yoki universitetni tugatgandan so'ng ilmiy karera uchun zarur bo'lgan kompetensiyaga aylanadi [6;97].

Ural davlat iqtisodiyot universiteti masofaviy ta'lim tizimi tashkilotchilari "Tyutor - bu masofaviy ta'limning o'quv jarayonida ishtirok etadigan va bir vaqtning o'zida o'quv jarayonining o'qituvchisi, maslahatchisi va tashkilotchisi (menejeri) funksiyalarini bajaradigan o'qituvchi-maslahatchi", deb hisoblaydilar [8;43].

N.V.Rybalkinaning fikricha, tyutorlik funksiyalarini amalga oshiruvchi o'qituvchi ananaviy o'qituvchidan farqli ravishda taylor bilimlarni taqdim qilish emas, balki bilimlarni egallash yo'llarini ko'rsatishi, ta'lim oluvchining qiyofasini shakllantirish zarurdir.

A.N.Tubelskiy o'z tadqiqotida tyutorlik orqali yordam, qo'llab-quvvatlash, vositachilikni tushunish bilan birga uning quyidagi asosiy funksiyalani belgilaydi:

- talaba shaxsini rivojlantirishga shart-sharoit yaratish;
- talaba faoliyatini loyihalash va tashkil etishi;
- mustaqil ishlarni tashkil etish,
- berilgan topshiriqlarni bajarishda yo'l -yo'riq ko'rsatish[6;79].

B.D.Elkonin, shuningdek, tyutorlik faoliyatini quyidagi funksiyalarini belgilab ko'rsatadi:

- ta'lim oluvchilarni muvaffaqiyatlarini qayd etish;
- yaqin istiqbollardagi ishlarni rejalashtirish [6;87].

S.I.Zmeev ta'kidlashicha "tyutor - bu murabbiy, kattalarga ta'lim berishda kontingenit a'zosи, insonlarga doimiy yordam ko'rsatadigan. Ta'limni tashkiliy masalalarini hal qilishda kattalarga yordamchi" [9; 94].

"Profesional ta'lim tizimi terminologiyasi" lug'atida "tyutor" atamasining ma'nosi quyidagicha ifodalanadi "tyutor - o'quv jarayonini osonlashtiradigan shaxs, uning vazifasi o'z tinglovchilarining rolini bilishdir" [2;74].

S.A.Shennikovning monografiyasida "tyutor" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: o'qituvchi-maslahatchi-ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etish sohasidagi "mutaxassis". Tyutor yaxlit ta'lim modulini yaratish va boshqalar uchun javobgardir, talabalar bilan guruqli va individual ishlarni tashkil etish.

PEDAGOGIKA

Tyutorning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- guruh mashg'ulotlarini tayyorlash va o'tkazish;
- topshiriglarni bajarishda yordam berish, ularni tekshirish, baholash va maslahatlarni tashkil etish. Talabalarni qo'llab-quvvatlashni psixologik va pedagogik shakllari;
- ta'lim bilan bog'liq akademik yoki shaxsiy muammolarga doir qaror qabul qilishda talabalarga individual yordam berish;

-kasbiy yo'nalishni belgilash va karyera qurish masalalari bo'yicha maslahat berish.

- tyutorlik faoliyati yo'nalishlari-didaktik, tashkiliy, maslahatchilik, etakchilik [11;488].

Hozirgi vaqtida rus olimlari tadqiqotlarida tyutor texnologiyalarini umumiyligi o'rta ta'limga joriy etish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Pedagog olimlar T.M.Kovaleva, N.V.Rybalkina, G.P.Shchedrovitskiy, D.B.Elkonin, A.N.Tubelskiy va boshqalarning ishlarida o'rta maktablar asosida tyutorlik texnologiyalarini amalga oshirish tajribasi umumlashtirilgan, zamonaviy ma'noda tyutorlik mafkurasi yaratilgan. Faylasuf Mirab Mamardashvilining "inson - bu imkoniyat" degan so'zlariga asoslanib, tyutorning faoliyati "talaba o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan vaziyatni yaratish" sifatida tavsiflanadi [7; 19].

Ko'pgina tadqiqotchilar tyutorlik g'oyasi — bu o'quvchilar bilan birlgilikda olib boriladigan pedagogik qidiruv g'oyasi, deb hisoblashadi. Tyutorlik funktsiyalarini amalga oshiradigan o'qituvchi o'quvchi bilan tengma teng ravishda bilim, ko'nikma va tajribalarni egallash yo'llini topishga harakat qildi. Ta'lim mazmunida o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini rivojlantirish uchun asos izlashga yordam beradigan maslahatchidir.

XULOSA

Shunday qilib, tyutorning rolini tushunishda ba'zi farqlarga qaramay, berilgan barcha ta'riflarni birlashtiradigan jihat mavjud. O'qituvchining vositachilik faoliyati va u amalga oshiradigan tashkilotchi, maslahatchi va murabbiy rollarining umumlashmasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бендова Л.В. «Развиватель» для развивающихся . Управление персоналом. — 2006. - № 18. - С. 51-55с.
2. Беков Х.А. Терминология в системе дополнительного профессионального образования : словарь.- М. : ИПК госслужбы, 2001. - 107 с.
3. Деражне Ю.Л. Тьютор в открытом обучении : учеб.-метод. Пособие. - М. : Изд-во Департ. федерал, гос. службы занятости населения Моск, обл., 1998. — 58 с.
4. Комраков Е.С. Проектировочная деятельность тьютора в системе открытого дистанционного профессионального образования : авто- реф. дис. канд. пед. наук . - М., 2004. - 24 с.
5. Moore M. G. Distance Education: a Systems View of Online Learning Paperback. — Wadsworth Publ., 2011. — 361 р.
6. Тьюторство: концепции, технологии, опыт : юбилейн. сб., по- свящ. 10-летию тьютор, конф., 1996-2005 гг. / Томск, гос. пед. ун-т; сост. И. Д. Прокуровская, Т. В. Якубовская. - Томск, 2005. — 296 с.
7. Тьюторство как новая профессия в образовании : сб. метод, материалов / отв. ред. Н. В. Муха, А. Г. Рязанова-Томск: Дельтаплан, 2001. — 159 с.
8. Тьюторы: преподаватель, консультант, менеджер, сертификация... [Электронный ресурс] / Центр дистанционного образования Ур-ГЭУ// Режим доступа: <http://cde.usue.ru/tutors/>. - Загл. с экрана. - (Дата обращения : 15.11.2008).
9. Змеев, С. И. Основы андрагогики : учеб, пособие для вузов. - М. : Флинта : Наука, 1999. - 152 с
10. Williams, P. E. Defining distance education roles and competencies for higher education institutions : a computer-mediated delphi study / P. E. Williams : dissertation Abstracts International-A, 61/04. - AAT 9969029. - Texas A&M, 2000.-211
11. Щенников С.А. Основы деятельности тьютора в системе дистанционного образования . - М. : Дрофа, 2005. — 608 с.
12. Mukhammadovna, U. N. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR'S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(03), 58-64.
13. O'Rinova, N. M. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 301-307.
14. Muhammedovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИL ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 144-149.